

TAVALLO MA'RIFATPARVAR SHOIR

Madaminova Nargizaxon Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jadid adabiyotining yirik namoyandasi ,XX asrning ko'zga ko'ringan shoiri Tavallo ijodida she'rlarning o'zni, ularda aks etgan ma'rifatparvarlik g'oyalari xususida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, ma'rifatparvar, ma'rifatparvarlik, " Ravnaq ul islam", Mag'zava, jaholat, bilim*

Tavallo taxallusi bilan ijod qilgan To'lagan Xo'jamiyrov XX asr boshlari o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan edi. U 1882- yil Toshkentning Ko'kcha mahallasida olimlar oilasida dunyoga kelgan. Ilm olish, xalqni ma'rifatli qilishga intilishdan hech qachon charchamagan.

Shoir hamisha xalqi, millati ozodligini, taraqqiy etishini, jaholat o'rnini ma'rifat egallashini orzu qilib, bu uchun astoydil kurashib yashagan o'zbek jadidlaridan sanaladi. U bu safga 1905- yilda qo'shilar ekan, harakatning barcha muhim jabhalari, jarayonlarida faol ishtirok etadi. Xususan, " Turon" jamiyati, " Nashriyot" shirkatida faoliyat ko'rsatadi. Ilk milliy teatr tomoshasi dunyo yuzini ko'rishida ishtirok etadi. Milliy matbuotimizning ilk namunalari sanalgan " Sadoyi Turkiston ", " Sadoyi Farg'ona ", " Shuhrat ", " Taraqqiy " gazetalari bilan muntazam hamkorlik qiladi.

Tavallo o'ziga xos hajviy she'rlari, millat dardi, qayg'usi bilan yo'g'rilgan ijod mahsullari xalq orasida katta shuhrat qozongan. Uning hayotlik davrida bosilgan bitta-yu bitta kitobi "Ravnaq ul-islam " bo'lib, u shoirning yagona she'riy to'plamidir. Ushbu to'plam Tavalloning ijodini baholashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. " Ravnaq ul- islam " u qadar katta to'plam emas. 70 ga yaqin she'r o'rin olgan bo'lib, deyarli barchasi ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Ularda millat, vatan tushunchalari, o'tmishi, kelajagi, jahonda tutgan o'zni kabi masalalar ko'tarilgan:

Movarounnahr dur tarixda bizlarda vatan,

Arzig'ay bizlar sanga xizmatda bo'lsak jon u tan.

Ushbu she'rida " bu vatandandur badan" jumlasini uchraydi. Bu bilan shoir Vatan har bir insonda, tani-jonida, vujudida; odamzot bor ekan, Vatan hech qachon yo'q bo'lmaydi, hamisha mavjud degan g'oyani ilgari surgan.

Mag'zava taxallusi bilan bir qancha hajviy she'rlar bitgan bo'lib, ularda, asosan, jamiyatdagi muammo, nuqson va kamchiliklar hajv ostiga olingan.



"PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH"



" Ruslar otib bir zambarak..." deb boshlanuvchi she'ringing dastlabki bandlarida rus hukumatining xalqimiz boshiga solgan ko'rguliklari qalamga olingan:

Ruslar otib bir zambarak,
Borlarni qildi bedarak.

Keyingi misralarda dunyo xalqlari, jumladan, ruslarning har jabhada o'zib ketgani-yu, biz turkistonliklarning "tramvaydan yerga tusholmas" ligimiz solishtiriladi:

Ruslar uchsa osmon,
Mashinasi aeroplan.
Nechun bizlar tramvaydan
Yerga tusholmaymiz hanuz?!

Oxirgi misralarda butun dunyo shunday muhim yangiliklar, izlanishlar bilan band bo'lgan bir paytda bizning oddiy ishni eplolmayotganligimiz, ya'ni " narvon qo'yib tomdan tusholmayotganligimiz" shoir dilini xira qiladi:

Bizlar katta narvon qo'yib,
Tomdan tusholmaymiz hanuz.

Ushbu misralardagi " narvon", " tom" so'zlarini majoziy ma'noda ham talqin etish mumkin:

narvon- bilim, ilm, ma'rifat bo'lsa, tom- jaholat, bilimsizlik.

Shuningdek, " Jahon ayvoniga..." she'ridan ham xuddi shu masalalar o'rin olgan:

Desam, dunyoda bizdek ortda qolgan bormu millatdan,
Bu Turkiston elidin tobmadim iqror yo'x, yo'x.

Shoir eliga: " Bizdek ortda qolgan millat bormi?!" deb murojaat qilganida birorta iqror bo'luvchi topolmaydi va bu holat Tavalloning o'tli yuragini o'rtaydi.

Millat, yurt g'ami bilan yonib yashagan shoirga turli asossiz ayblovlar qo'yiladi. 1919- yil 10- noyabr kuni butun Turkiston xalqi o'zining mana shunday ma'rifatparvar, jonkuyar jadididan ayrildi. Tavallo qoldirgan meros yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi mayoq bo'lib xizmat qilmoqda. Demak, Tavallo har bir qadamimizda, biz bilan birga.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov. N, Mamajonov. S, Nazarov. B, Normatov. U, Sharafiddinov. O. XX asr O'zbek adabiyoti tarixi. - Toshkent, 1999.
2. Begali Qosimov " Tavallo" maqolasi " Guliston " jurnali 1989- yil 5- son.
3. Begali Qosimov " Vatan va millatning o'tlig' kuychisi" maqolasi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasi 2003 yil 49-son.
4. Umid Bekmuhammad " Tavalloning iztiroblari"